



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(6)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 374 sahifa,  
22-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
<b>Madaminova Gulzira Gulamkadirovna</b>	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni .....	14
<b>Arolov Davronjon Davlataliyevich</b>	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....	19
<b>Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi</b>	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
<b>Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	26
<b>Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi</b>	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
<b>Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna</b>	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
<b>Hojiyeva Nasiba Bahodirovna</b>	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
<b>Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi</b>	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati .....	43
<b>Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li</b>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
<b>Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi</b>	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari .....	54
<b>Nusratova Mexriniso Baxshilloevna</b>	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
<b>Pulatova Dilfuza Azamkulovna</b>	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
<b>Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi .....	70
<b>Qurbonova Sevara Suyunovna</b>	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari .....	74
<b>Raxmatov Oxunjon Soibjonovich</b>	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
<b>Saidova Feruza Akramovna</b>	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
<b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
<b>Toxirova Dilshoda Inom qizi</b>	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash .....	92
<b>Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi</b>	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
<b>Xaydarova Go‘zalxon</b>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari .....	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari .....	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi .....	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar .....	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish .....	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri .....	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi .....	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах .....	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 <b>Allamurodov Elyor Tursun ugli</b>
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 <b>Dilrabo Jumanova</b>
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar ..... 227 <b>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</b>
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar ..... 232 <b>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</b>
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 <b>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</b>
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 <b>Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</b>
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 <b>Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</b>
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar ..... 247 <b>Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi</b>
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 <b>Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna</b>
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari ..... 255 <b>Berdiyeva Dilnoza A'zamovna</b>
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv ..... 258 <b>Charos Axmadova</b>
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish ..... 262 <b>Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich</b>
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi ..... 267 <b>Djalalov Baxromjan Begmurzayevich</b>
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar ..... 272 <b>Erimmetova Nafisa Bahromovna</b>
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari ..... 279 <b>Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi</b>
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish tehnologiyalari..... 283 <b>Karimov Jaxongir Abdunabiyevich</b>
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 <b>Madaminova Shaxodat Shomurotovna</b>
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 <b>Mahmudova Maftuna Aktam qizi</b>
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study ..... 297 <b>Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li</b>
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 <b>Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza</b>
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 <b>Muxitdin Nazarov</b>
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 <b>Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi</b>
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 <b>Qurbonova Gulmira Alisher qizi</b>



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish .....	318
<b>Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li</b>	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
<b>Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna</b>	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
<b>To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich</b>	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
<b>Turabova Lobar Xusen qizi</b>	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi .....	339
<b>Usmonova Xusnora Ergashovna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish .....	344
<b>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</b>	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
<b>Ahmedov Gayratjon Kosimovich</b>	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
<b>Бабаджанова Гулчехра</b>	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
<b>Габдульманова Ильнура Минисламовна</b>	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
<b>Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida ....	362
<b>Ergashova Dilafro'z</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari .....	365
<b>Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna</b>	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project) .....	368
<b>Khurshida Kuchkarova</b>	



## 10-11-SINF O'QUVCHILARIDA O'QISHDAN YOZUVGA O'TISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING BOSQICHLI METODIK TIZIMI

Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 10-11-sinf o'quvchilarida ingliz tilida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi yoritiladi. Tadqiqotda o'quvchilarning matni tushunish jarayonidan boshlab, uni tahlil qilish, qayta ishlash va mustaqil yozma nutq yaratishgacha bo'lgan bosqichma-bosqich faoliyati asoslab beriladi.

Metodik tizim o'qish jarayonini faqat axborot qabul qilish emas, balki yozma nutq uchun lingvistik va kommunikativ tayanch sifatida ko'rishga asoslanadi. Shuningdek, mazkur yondashuvda leksik-grammatik birliklarni kontekstda o'zlash-tirish, matn strukturasi anglash va fikrni izchil yozma shaklda ifodalashga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari o'qish va yozish ko'nikmalarining integratsiyasi o'quvchilarning yozma nutq sifatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** o'qishdan yozuvga o'tish, integrativ yondashuv, bosqichli metodika, yozma nutq, kommunikativ kompetensiya, CEFR, matn ustida ishlash.

**Abstract:** This article presents a stage-based methodological system for developing the reading-to-writing transition skill in English among 10th–11th grade students. The study substantiates a step-by-step learning process that begins with text comprehension and proceeds through analysis, processing, and the creation of independent written discourse.

The proposed methodology views reading not only as a means of receiving information but also as a linguistic and communicative foundation for writing. Particular attention is paid to the contextual acquisition of lexical and grammatical units, understanding text structure, and expressing ideas coherently in written form. The findings indicate that the integration of reading and writing skills significantly improves the quality of students' written production.

**Key words:** reading-to-writing transition, integrative approach, stage-based methodology, writing skills, communicative competence, CEFR, text-based learning.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается поэтапная методическая система развития навыка перехода от чтения к письму на английском языке у учащихся 10-11 классов. В исследовании обоснована последовательная деятельность учащихся, начиная с понимания текста, его анализа и переработки до создания самостоятельного письменного высказывания.

Методическая система основывается на рассмотрении чтения не только как процесса восприятия информации, но и как лингвистической и коммуникативной основы для письменной речи. Особое внимание уделяется усвоению лексико-грамматических единиц в контексте, пониманию структуры текста и последовательному выражению мыслей в письменной форме. Результаты исследования показывают, что интеграция навыков чтения и письма способствует значительному повышению качества письменной речи учащихся.

**Ключевые слова:** переход от чтения к письму, интегративный подход, поэтапная методика, письменная речь, коммуникативная компетенция, CEFR, работа с текстом.

### KIRISH

Bugungi kunda chet tillarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ayniqsa, o'qish va yozuv ko'nikmalarini integrativ tarzda shakllantirish dolzarb metodik muammolardan biri hisoblanadi. Amaldagi ta'lim tizimida o'quvchilar matni o'qish orqali ma'lumotni qabul qilishda nisbatan faol bo'lsalar-da, ushbu ma'lumotni mustaqil yozma nutqqa aylantirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli o'qishdan yozuvga o'tish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur muammoning dolzarbligi chet tili ta'limida matn bilan ishlashning faqat tushunish darajasida qolib ketmasligi, balki uning yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy manba sifatida qaralishi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, 10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning



bosqichli metodik tizimini ishlab chiqish va uni takomillashtirish ilmiy-metodik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti sifatida 10-11-sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'qitish jarayonida o'qish va yozuv ko'nikmalarining integratsiyasi jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmeti esa o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan bosqichli metodik tizimning mazmuni, tuzilishi va uni amaliyotga tatbiq etish usullaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi 10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi bosqichli metodik tizimni ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- a) o'qish va yozuv ko'nikmalarining integratsiyasiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- b) o'quvchilarda o'qishdan yozuvga o'tish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash;
- c) bosqichli metodik tizimning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- d) metodik tizimni amaliy mashg'ulotlar asosida sinovdan o'tkazish;
- e) olingan natijalar asosida uning samaradorligini tahlil qilish va xulosalar ishlab chiqish.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini bosqichli rivojlantirish masalasi chet tilini o'qitish metodikasida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda o'qish va yozuv ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi, matn asosida yozma nutqni shakllantirish hamda integrativ yondashuvning samaradorligi alohida ta'kidlanadi.

Xorijiy metodikada o'qish va yozuvni integratsiyalash masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Jumladan, Jeremy Harmer <sup>[3]</sup> o'qish faoliyatini yozma nutq uchun asosiy manba sifatida ko'rib, matn bilan ishlash bosqichlari yozuv jarayonining sifatini belgilashini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Jack C. Richards <sup>[7]</sup> kommunikativ yondashuv doirasida o'qish va yozuvni ajratilgan emas, balki bir-birini to'ldiruvchi faoliyat turlari sifatida talqin qiladi.

Michael H. Long esa interaktiv o'qitish jarayonida til ko'nikmalarining integratsiyasi o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligini asoslaydi.

Shu bilan birga, Paul Nation <sup>[6]</sup> leksik birliklarni kontekstda o'zlashtirish va ularni produktiv nutqqa aylantirish jarayonida o'qish materiallarining o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Ken Hyland <sup>[4]</sup> esa akademik yozuvni rivojlantirishda matn strukturasi tahlil qilish va namunaviy matnlardan foydalanish samarali metodlardan biri ekanini ta'kidlaydi.

Mahalliy ilmiy maktabda ham ushbu yo'nalishda bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, o'zbek metodist olimlari chet tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, o'qish va yozuvni integratsiyalash hamda bosqichli o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratganlar. Ularning ishlarida o'quvchilarning yosh-kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda matn bilan ishlash, leksik-grammatik ko'nikmalarni kontekst asosida shakllantirish va yozma nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda o'qishdan yozuvga o'tish jarayoni ko'proq umumiy integratsiya doirasida ko'rib chiqilgan bo'lib, 10–11-sinf o'quvchilari uchun aynan bosqichli, tizimli va amaliy yo'naltirilgan metodik model yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot o'qish jarayonini yozma nutqqa aniq transformatsiya qiluvchi bosqichlar tizimini ishlab chiqishi bilan avvalgi ishlardan farq qiladi.

### TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani ishlab chiqishda 10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslash maqsadida bir qator umumilmiy va xususiy pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, qiyosiy-taqqoslash usuli qo'llanildi. Ushbu metod orqali an'anaviy o'qitish amaliyotida o'qish va yozuv ko'nikmalarining alohida o'rganilishi bilan integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni solishtirildi. Taqqoslash natijasida integratsiyalashgan yondashuvda o'quvchilarning yozma nutqida izchillik, leksik boylik va mantiqiy bog'liqlik sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Shu asosda o'qishdan yozuvga o'tish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish samaradorligi asoslab berildi.

Shuningdek, tadqiqotda kuzatish metodidan ham foydalanildi. Dars jarayonida o'quvchilarning matn bilan ishlash, asosiy fikrni ajratish va uni yozma shaklda ifodalash faoliyati tizimli ravishda kuzatildi. Bu jarayon o'quvchilarning matnni faqat tushunish darajasida emas, balki uni qayta ishlash orqali yozma nutqqa aylantirishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatdi.

Tajriba-sinov (eksperimental) metodi yordamida bosqichli metodik tizim amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Tajriba davomida o'quvchilar bilan matnni oldindan tayyorlash, matnni tahlil qilish, leksik-grammatik birliklarni ajratish va yakuniy yozma matn yaratish bosqichlari ketma-ket amalga oshirildi. Tajriba natijalari o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarida ijobiy dinamikani ko'rsatdi.

Bundan tashqari, analitik-sintetik metod orqali o'quv materiallari va matnlar tarkibiy jihatdan tahlil qilindi hamda yozma nutqni shakllantirishga xizmat qiluvchi lingvistik birliklar ajratib olindi. Bu yondashuv o'quvchilarga matnni bo'laklarga ajratib o'rganish va keyinchalik uni yaxlit yozma shaklga keltirish imkonini berdi.

### TAHLIL NATIJALARI

Tadqiqotning asosiy qismida 10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirish jarayoni mavjud pedagogik amaliyot asosida tahlil qilindi va o'quvchilarning o'qish hamda yozish faoliyatidagi real holat sifat va miqdor jihatdan o'rganildi. Dastlabki diagnostik bosqichda o'quvchilarga berilgan topshiriqlar natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qilgan matnni umumiy tushunish darajasi nisbatan qoniqarli bo'lsa-da, uni asos qilib mustaqil yozma matn yaratish ko'nikmasi yetarli darajada shakllanmagan. Ko'pchilik o'quvchilar matn mazmunini qayta hikoya qilish bilan cheklangan bo'lib, fikrni mantiqiy, izchil yozma shaklda ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelgan. Bu esa yozma nutqda strukturaviy zaiflik va leksik cheklanganlik mavjudligini ko'rsatdi.

Tajriba boshlanishida kuzatilgan holatlar tahlili shuni aniqladiki, o'quvchilar matndan asosiy g'oyani ajratishda qisman muvaffaqiyatga erishgan bo'lsalar-da, ikkilamchi fikrlarni farqlash, ularni umumlashtirish va yozma nutqda qayta tashkil etish ko'nikmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Bu jarayonda yozma ishlar ko'proq qisqa, sodda va izchil bo'lmagan gaplardan iborat bo'lib, grammatik xatolar hamda mantiqiy bog'lanishning sustligi kuzatilgan.

Bosqichli metodik tizim joriy etilgandan so'ng amalga oshirilgan oraliq tahlillar natijasida o'quvchilarning faoliyatida sezilarli o'zgarishlar qayd etildi. Xususan, matnni tahlil qilish, uning tuzilishini anglash va reja asosida yozma matn yaratish jarayoni ancha tizimlashdi. O'quvchilar fikrni ketma-ketlikda ifodalashga, kirish, asosiy qism va xulosa elementlarini ajratishga ko'proq e'tibor bera boshladilar. Natijada yozma ishlarning mazmuniy izchilligi oshdi, leksik boylik kengaydi va grammatik aniqlikda ijobiy dinamik o'sish kuzatildi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, bosqichli yondashuv o'quvchilarning o'qish jarayonini passiv qabul qilishdan faol qayta ishlash bosqichiga o'tkazadi va bu jarayon yozma nutq sifatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eng muhim jihati shundaki, o'quvchilar matndan olingan ma'lumotni tayyor shaklda emas, balki qayta tashkil etilgan, mantiqan asoslangan va mustaqil yozma ifodaga aylantira boshladilar. Bu esa o'qishdan yozuvga o'tish kompetensiyasining shakllanganini tasdiqlaydi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirish jarayoni an'anaviy yondashuv asosida tashkil etilganda, o'quvchilar matnni tushunish darajasida ma'lum natijalarga erishsalar-da, uni mustaqil yozma nutqqa aylantirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holat o'qish faoliyatining ko'pincha passiv qabul qilish darajasida qolib ketishi bilan izohlanadi. Shuning uchun o'qish jarayoni yozma nutqni shakllantiruvchi faol, tahliliy va qayta ishlovchi bosqich sifatida qaralishi zarur, degan metodik qarash shakllandi. Mazkur yondashuvga ko'ra, matn faqat axborot manbai emas, balki yozma fikrni qurish uchun lingvistik va kommunikativ material sifatida xizmat qilishi kerak.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida o'qish va yozuvni integratsiyalashgan holda, bosqichma-bosqich tashkil etilgan ta'lim jarayonini keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avvalo, o'quvchilarda matnni yuzaki tushunishdan chuqur tahlil qilishga o'tish ko'nikmasini shakllantirish zarur bo'lib, bunda matnni qismlarga ajratish, asosiy va ikkilamchi fikrlarni farqlash hamda ularni rejalashtirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Keyingi bosqichda esa o'quvchilarni tayanch leksik birliklar va grammatik tuzilmalar asosida yozma matn yaratishga yo'naltirish, ularni namunaviy matnlar bilan ishlash orqali yozuv strukturasi anglashga o'rgatish samarali natija beradi.

Shuningdek, dars jarayonida kommunikativ yondashuvni kuchaytirish, o'quvchilarga mustaqil fikr bildirish va uni yozma shaklda asoslash imkoniyatini kengaytirish zarur. Raqamli texnologiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish ham o'qishdan yozuvga o'tish jarayonini tezlashtiradi, chunki ular o'quvchilarga matnni tahlil qilish va qayta ishlashda qo'shimcha vizual hamda amaliy yordam beradi. Umuman olganda, bosqichli metodik tizimni amaliyotga joriy etish o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda barqaror va samarali natijalarni ta'minlaydi hamda ularni mustaqil fikrlovchi va izchil yozma ifoda yarata oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Brown, H. D. (2007). Principles of language learning and teaching (5th ed.). Pearson Education.
2. Council of Europe. (2018). Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment (Companion volume). Cambridge University Press.
3. Harmer, J. (2015). The practice of English language teaching (5th ed.). Pearson Education.
4. Hyland, K. (2019). Second language writing (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Long, M. H. (2015). Second language acquisition and task-based language teaching. Wiley-Blackwell.
6. Nation, I. S. P. (2013). Learning vocabulary in another language (2nd ed.). Cambridge University Press.
7. Richards, J. C. (2006). Communicative language teaching today. Cambridge University Press.
8. Swain, M. (2005). The output hypothesis: Theory and research. In E. Hinkel (Ed.), Handbook of research in second language teaching and learning (pp. 471-483). Lawrence Erlbaum Associates.
9. Nazarova, Sh. A. (2024). Integrative development of reading and writing skills in foreign language teaching. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(3), 7-10.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(6)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.